

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PARLAMENT NAZORATI INSTITUTINING AHAMIYATI

Ibroximova Madina Qaxramonovna

Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat boshqaruvi huquqi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari o'rtasidagi vakolatlar taqsimlanishining konstitutsiyaviy-huquqiy tahlillarini hamda o'zaro ichki va tashqi muvozanat mexanizmlarining nazariy asoslarini ko'rsatib beradi. Shuningdek, mamlakatimiz miqyosida ushbu sohadagi mavjud muammolarga taklif va yechimlar ishlab chiqishdan iborat.*

Annotation: *"This thesis provides a constitutional and legal analysis of the distribution of powers between the chambers of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, as well as the theoretical foundations of internal and external checks and balances. Furthermore, it aims to develop practical proposals and solutions to existing issues within this field at the national level."*

Аннотация: *Данный тезис раскрывает конституционно-правовой анализ распределения полномочий между палатами Олий Мажлиса Республики Узбекистан, а также теоретические основы внутренних и внешних механизмов взаимного сдерживания и баланса. Кроме того, работа направлена на разработку предложений и решений существующих проблем в данной сфере в масштабах нашей страны.*

Parlament nazorati - bu O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan davlat hokimiyati organlari, ayniqsa ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan olib boriladigan nazorat shaklidir. Parlament nazorati demokratik davlatning muhim belgilaridan biri bo'lib, hokimiyatlar bo'linishi prinsipini mustahkamlaydi va davlat boshqaruvida muvozanatni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Parlament nazorati to'g'risida"gi 403-sonli Qonun ushbu faoliyatning eng muhim normativ-huquqiy asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 103-moddasiga muvofiq, parlament nazoratining bir shakli sifatida parlament tekshiruvi haqida norma belgilangan bo'lib, mamlakatning xavfsizligi, barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soladigan faktlar va voqealarni o'rganish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatidan kelib chiqib parlament tekshiruvi o'tkazish huquqi mavjud. Buning uchun ular orasidan tenglik asosida maxsus komissiya tuzilishi va qonunga muvofiq ish ko'rishi belgilangan.

Professor Sh.Zulfiqorovning fikricha, "parlament nazorati funksiyasining ahamiyati shundaki, birinchidan, qabul qilingan qonunlarning ijro etilishi darajasini o'rganish, ikkinchidan, qonunlarning amaliyotda qo'llanilishiga salbiy ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash, uchinchidan, mavjud kamchiliklarni bartaraf

etishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash, to'rtinchidan, tegishli qonunlarga nazorat-tahlil natijalariga asosan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, beshinchidan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, mansabdor shaxslar hamda fuqarolarning qonun hujjatlari qoida-talablariga so'zsiz amal qilish mas'uliyati va majburiyatini oshirishga xizmat qiladi."

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni tushunish mumkinki, parlament nazoratini besh bosqichga bo'lib amalga oshirish taklif qilinadi:

1. Maqsadni belgilash - qonunning ijro etilishi yuzasidan masalalarni o'rganish;
2. Muammoni aniqlash - amaliyotda qonunlarning qo'llanilishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanadi;
3. Vazifalarni belgilash - muammolarni hal qilishga qaratilgan, mavjud xato va kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan vazifalarni belgilash;
4. Muammoni hal qilish - o'rganilishlar natijasida xato va kamchiliklari mavjud qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, shu orqali amaliyotdagi muammolarni ham bartaraf etish;
5. Nazorat qilish - davlat organlari, mansabdor shaxslar shuningdek, fuqarolardan endi ana shu o'zgartirilgan qonun hujjatlariga so'zsiz amal qilish majburiyatini yuklash.

Parlament nazorati instituti nafaqat qonunlarning ijro etilishi sifatini oshirishga qaratilgan bo'ladi, balki hokimiyatlar o'rtasida o'zaro "tiyib turish va muvozanatni saqlash" ("checks-and-balances") da ham ahamiyatini katta va dolzarb deya olamiz.

T/R Parlament nazorati subyektlari Parlament nazorati obyektlari

1. Qonunchilik palatasi Davlat organlarining hamda mansabdor shaxslarining O'zbekiston Respublikasi va qonunlarini;
2. Senat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlarini;
3. Qonunchilik palatasining, Senatning qo'mitalari, komissiyalari Davlat dasturlarini ijro etish;
4. Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari
Vazifa va funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha faoliyati.
5. Qonunchilik palatasi deputatlari Nazorat obyekti emas:
- tezkor-qidiruv va surishtiruv ishlaridagi materiallarni;
6. Senat a'zolari - sudlarning ish yurituvdagi hujjatlarni;
7. Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman)- notarial ish yuritishning muayyan materiallarini ko'rib chiqish bilan bog'liq faoliyat parlament nazorati obyekti bo'lishi mumkin emas.

Parlament nazoratining bir qancha shakllari mavjud bo'lib, ular:

- davlat budjeti ijrosining borishini ko'rib chiqish va nazorat qilish;
- Vazirlar Mahkamasining eng muhim masalalar yuzasidan har yilgi ma'ruzalarini tinglash;
- tegishli yilga mo'ljallangan davlat dasturi bajarilishining borishi to'g'risidagi hisobotini ko'rib chiqish;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining har yilgi ma'ruzasini eshitish;

- O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri hisobotini eshitish;
- Vazirlar Mahkamasi a'zolarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitish;
- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;
- Bosh prokuror va Markaziy Bank boshqaruvi raisining hisobotini eshitish;
- Parlament so'rovi;
- Qonunchilik palatasi deputatining, Senat a'zosining so'rovi;
- Parlament tekshiruvi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, Parlament nazorati shakllarining yarmidan ko'pi muayyan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, rahbarlar va mansabdor shaxslarning hisobotlarini ko'rib chiqish hamda eshitishlaridan iborat. Bu ushbu tizimdagi eng asosiy muammodir. Ya'ni, shunchaki davlat organlari rahbarlarining hisobotini eshitish bilan ularni to'la nazorat qilish mushkul va deyarli imkonsiz. Ammo bir tomondan biz bu bilan hisobdorlik mexanizmlarini ko'rishimiz mumkin.

Parlament nazorati instituti samaradorligini oshirish uchun:

1. Siyosiy raqobatni kuchaytirish - parlament siyosiy partiyalari orasidan mustaqil hamda real muxolifatlarni jonlantirish orqali raqobatni kuchaytirish Parlament nazoratini ham kuchaytirishga olib kelishi mumkin.

2. Parlament tekshiruvlarini tez vaqti-vaqti bilan o'tkazib turish - nazoratning eng muhim shakllaridan biri, ammo undan kam foydalanishadi.

3. Hisobotlar sifatini oshirish va tekshiruvning qat'iyligi - ba'zi hollarda umumiy va statistik ma'lumotlarga asoslanadi, shuningdek muammolar ochiqdan-ochiq ma'lum qilinmaydi. Shu sababli, nazorat shakllarining yarmidan ko'pi hisobotlarga asoslangani uchun ham ularning sifatini oshirishga jiddiy ahamiyat berilishi kerak.

"Xorijiy tajribani o'rganish natijalari bo'yicha, nazorat chegarasi quyidagi ikki mezon yoki usul bilan aniqlanadi: parlament nazoratining ob'ektini qonunda belgilash yo'li (huquqiy jihat) bilan va parlament, ijro etuvchi hokimiyat konstitutsiyaviy vakolatlari sohasini aniq cheklovchi hokimiyatlar bo'linishi prinsipining harakat sohasi (siyosiy-huquqiy jihat) bilan." (20194)

Professor R.Hakimovning qayd etishicha, xorijiy davlatlar konstitutsiyaviy huquqi nazariyasida odatda, parlament faoliyatining nazorat shakllariga quyidagilar kiritiladi:

- Davlat byudjetini ko'rib chiqish, tasdiqlash, uning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;
- Inson huquqlari bo'yicha vakil faoliyati ustidan nazorat qilish;
- Parlament tergov;
- Deputatlarning nazorat vakolatlari;
- Parlament nazoratining ob'ekti hisoblanuvchi organlar mansabdor shaxslariga beriladigan og'zaki va yozma savollar;
- Parlament eshituvlari;
- Hukumat soati;

- Hukumatning yillik hisobotlari.

"Parlament nazorati to'g'risida"gi qonunga muvofiq davlat organlari mansabdor shaxslarining majburiyatlari quyidagicha belgilanadi:

Birinchidan, ular parlament nazoratini amalga oshirishida zarur shart-sharoitlar yaratishi;

Ikkinchidan, parlament nazorati subyektlarining (yetti subyekt) qonuniy talablarini bajarishi va to'sqinlik qilmasligi;

Shuningdek, zarur bo'lgan hujjatlarni hamda ma'lumotlarni parlament nazorati subyektlariga taqdim etishi shart hisoblanadi.

Shu o'rinda parlament nazorati subyektlarining majburiyatlari ham qat'iy belgilanib qo'yilgan. Unga ko'ra parlament nazorati subyektlari ushbu nazoratni o'tkazish bilan bog'liq hujjatlarni davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslariga tanishtirishi, boshqa organlarning vakolatlari doirasidagi faoliyatiga aralashmasligi, ularning faoliyat ko'rsatishiga to'siqlar yaratmasligi shuningdek, davlat sirlari yoki sir bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan tartibda talablarga rioya etilishi belgilanadi.

Parlament nazorati qonun chiqaruvchi hokimiyatning qonunchilikdan keyingi eng muhim va dolzarb bo'lgan funksiyasi hisoblanarkan, buni butun dunyo miqyosida unga bo'lgan turli xil yondashuvlar asosida ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Asosan hukumat ustidan nazoratga alohida urg'u beriladi. "Xususan, Qozog'istonlik olim O.Kopabaevning yozishicha, keng vakolatlari va kuchli apparati bilan ijro etuvchi hokimiyat nafaqat qonunchilik, balki sud organlari vakolatlarini ham o'zlashtirishga qodir.

Shu sababli, ijro etuvchi hokimiyat faoliyatini parlament nazorati va unga hisobdorlik asosida, faqatgina qonun doirasida amalga oshirilishini ta'minlash orqali uning tomonidan hokimiyatning monopollashtirilishiga mustahkam to'siq qo'yish lozim. Shu bilan bir qatorda, qonun chiqaruvchi organ tomonidan ijro etuvchi hokimiyat faoliyatiga haddan ziyod aralashishga ham yo'l qo'yib bo'lmasligini ta'kidlash lozim."

Philip Norton qonun chiqaruvchi organlarni ularning siyosat ishlab chiqishdagi roliga qarab farqlaydi va uchta turga ajratadi:

1. Siyosat ishlab chiquvchi qonun chiqaruvchi organlar

Bunga misol qilib AQSH Kongressini keltirish mumkin. Bunday organlar o'z siyosatlarini shakllantirishi va ijro etuvchi hokimiyat taklif qilgan siyosat o'rniga o'zinikini joriy qilishi, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyatdan kelayotgan takliflarni o'zgartirishi yoki rad etishi mumkin.

2. Siyosatga ta'sir ko'rsatuvchi qonun chiqaruvchi organlar

Bunga misol sifatida Buyuk Britaniya parlamenti va Germaniya Bundestagini ko'rsatish mumkin. Ular ijro etuvchi hokimiyat tomonidan taklif etilgan chora-tadbirlarni o'zgartirishi va ba'zan rad etishi mumkin, biroq o'z siyosatlarini shakllantirish yoki ularni boshqasi bilan almashtirish huquqiga ega emas. Yevropa parlamenti ham aynan shu toifaga kiradi.

3. Siyosatga ta'siri kam bo'lgan yoki umuman bo'lmagan qonun chiqaruvchi organlar

Bunga misol qilib Xitoy Xalq vakillari umumxitoy kengashi yoki sobiq Yevropa kommunistik davlatlaridagi qonun chiqaruvchi organlarni keltirish mumkin. Ularda ijro etuvchi hokimiyat takliflarini shakllantirish, o'zgartirish yoki rad etish vakolati bo'lmagan. Bunday organlar faqat oldindan kelishib bo'lingan siyosatni rasman tasdiqlash zarur bo'lgandagina yig'iladilar.

Parlament nazoratining turli nazariy modellari qiyosiy tahlil qilinganda, siyosiy madaniyat, huquqiy asoslar va tarixiy sharoitlarda sezilarli xilma-xillik borligi ko'rinadi. Masalan:

Rivojlangan davlatlarda: Qonun ustuvorligi va mustahkam institutlarga ega mamlakatlarda, qoida tariqasida, parlament nazorati ancha samarali va chuqur institutsionallashtirilgan bo'ladi.

Demokratik institutlari zaif davlatlarda: Aksincha, bunday mamlakatlarda parlament nazorati parlament ichidagi va tashqarisidagi turli muammolar tufayli qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Bunday yondashuvlar nafaqat parlament nazorati nima uchun kerakligi haqida asosiy bilimlarni beradi, balki u qaysi jihatlarda eng yaxshi faoliyat ko'rsatishini ham ko'rsatadi. Ushbu qonuniyatlarni o'rganish orqali samarali parlament nazoratini yo'lga qo'yish va uning ishlashini ta'minlashdagi jiddiylik va nozik jihatlarni anglab yetish mumkin. Shu nuqtai nazardan, mazkur nazariya ushbu amaliyotlar qanday ishlashiga va turli xalqlar parlament nazorati borasida qanday qiyinchiliklarga duch kelganiga mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2024-yil 20-noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida bo'lib o'tgan majlis nutqida: "Parlament va hukumat o'rtasidagi munosabat konstruktiv muloqotga asoslanishi zarur", - deb ta'kidladi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida parlament nazorati institutining asosiy vazifasi ijro hokimiyati ustidan nazorat bo'lib, Amerikalik mutaxassis Valtera Olejekaning fikriga ko'ra, "Parlament nazoratining fundamental maqsadi ijro etuvchi mansabdor shaxslarni qonunga binoan mavjud vakolatlarini amalga oshirmaganlik uchun javobgarlikka tortish bo'lib hisoblanadi. Zamonaviy davrda ijroiya hokimiyati ta'sirining juda tez kengayishini hisobga oladigan bo'lsak, parlament nazoratining ushbu maqsadi juda muhimdir".

Parlament nazoratining asosiy muammolari sifatida qonunchilikdagi ayrim huquqiy bo'shliqlarning mavjudligi, parlament va hukumat o'rtasidagi hisobdorlik mexanizmlarinishlashining sustligini keltirishimiz mumkin. Buni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining rasmiy saytlaridagi ma'lumotlardan ham anglash mumkin. Ushbu elektron platforma orqali parlament hayotidagi muhim yangiliklarni, deputatlar va senat a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlarni, qonun loyihasi muhokamalarini, ushbu qonun loyihalariga nisbatan jamoatchilik

fikrlarini, shuningdek, nazorat tahlillari bilan tanishib chiqish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrir
2. O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati to'g'risida"gi qonuni
3. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik.: TDYU nashriyoti, 2024.-800b
4. Sh.X. Zulfiqorov, O'zbekiston Respublikasi Parlament huquqi.-TSUL library.-2009
5. R. Hakimov, Davlat hokimiyati tizimida parlament: nazariya va amaliyot muammolari: Monografiya-Toshkent.:2012.-184b
6. R. Hakimov, O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyatning vakolatlari va nazorat funksiyalarini takomillashtirish: O'zbekiston qonunchiligi tahlili ilmiy tahliliy jurnal.: 2019.- 4-son